

шарҳлар 679



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

1991-yildan
chiqa boshlagan

2019-yil. 2-son

ISSN 2010-5584

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz



**Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi qayta ta'mirlanib,
yangidan-yangi noyob eksponatlar bilan boyitilmoqda!**

O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli mazkur ilmiy muassasa 1940-yili Alisher Navoiy tavalludining 550-yilligi munosabati bilan Respublika ko'rgazmasi tariqasida tashkil topgan.

Hozirda Xalqaro muzeylar kengashi a'zosi hisoblanuvchi usbu dargohda Markaziy Osiyo madaniyati va san'atining 3000 dan ortiq noyob eksponat, ashyo va hujjatlari saqlanayotgani barobarida ular yuzasidan ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Ayniqsa, XX asrda suronli qatag'on yillarini boshidan o'tkazgan o'zbek adabiyoti namoyandalari benazir asarlari hamda haligacha to'liq o'rganilmagan shaxsiy arxivlari jahon ilm-fani vakillarini ham mazkur muzeyga ohanrabodek chorlab turadi.

Ushbu sonda



Dolzarb
mavzu

Sodda yig'iq va sodda
yoyiq gaplar xususida
mulohazalar

8- bet



Dars -
muqaddas

O'rin-joy otlari

14- bet



Adabiy
taqvim

Munaqqid jasorati

23- bet



Tadqiqotlar

Turkiy va yevropa xalqlari
totem va geraldikasida
milliylikning aks etishi

38- bet

fe'li bilan birgalikda kelganda tasdiq ma'nosi ifodalanadi: *o'qimagan emas (o'qigan), yozmagan emas (yozgan)*. Bunday shakllar nutq jarayonida suhbatdoshning fikrini, ya'ni uning inkor gapini inkor etish uchun ishlatiladi va tasdiqni ifodalaydi. Bunday hollarda, odatda, bir suhbatdoshning aytgan gapini ikkinchi suhbatdosh tomonidan aynan takrorlanadi va undan so'ng *emas* to'liqsiz fe'li keladi.

Masalan:

Birinchi suhbatdosh: *Karim bu kitobni o'qimagan.*

Ikkinchi suhbatdosh: *Karim bu kitobni o'qimagan emas;*

5) inkor shakllarining qo'shaloq holda qo'llanilishi har doim ham tasdiq ma'nosini ifodalayvermaydi. Masalan, *na* inkor shakli fe'lining bo'lishsiz shaklini hosil qiluvchi *-ma* affiksi bilan birgalikda kelganda ham yasalmanning inkor ma'nosi saqlanadi: *na o'qimaydi, na yozmaydi*. Bunday yasalmalarda shakl nuqtayi nazaridan inkor shakllari qo'shaloq holda qo'llangan, ammo vazifa nuqtayi nazardan bu o'rinda *na* inkor yuklamasi *ham* ayiruv yuklamasi vazifasida kelmoqda: *o'qimaydi ham, yozmaydi ham;*

6) *na* inkor shakli *yo'q* yordamchisi bilan ham birgalikda qo'llaniladi. Bunday yasalmalar faqat o'tgan zamon va hozirgi zamon fe'llarining inkor shaklini hosil qiladi: *na o'qigani yo'q* yoki *na o'qiyotgani yo'q;*

7) *yo'q* yordamchisi vositasida hosil bo'lgan yasalmalarda inkor ma'nosi keskin qo'yilishi bilan ajralib turadi. Solishiring: *o'qimagan – o'qigani yo'q;*

8) inkor shakllari kesim tarkibida kelganda ushbu gap har doim ham voqelikka munosabatiga ko'ra inkor gap bo'lavermaydi. Bunda diqqat qilinishi lozim bo'lgan quyidagi jihatlar mavjud:

a) *-ma* affiksi fe'l kesim tarkibida kelganda ushbu gap har doim voqelikka munosabatiga ko'ra inkor gap hisoblanadi: *Men vaqtimni foydasiz ishlarga sarflamayman;*

b) *yo'q, emas* inkor shakllari kesim tarkibida kelganda har doim ham inkor ma'nosini beravermaydi. Solishiring:

Karim bu kitobni o'qigani yo'q – Karimning bugun kayfiyati yo'q. Ushbu misollarning birinchisi voqelikka munosabatiga ko'ra inkor gap, ikkinchi gap esa tasdiq gap. Ikkinchi gap ko'p hollarda (aksariyat talabalar tomonidan) voqelikka munosabatiga ko'ra inkor gap, deb e'tirof etiladi. Aslida esa bu gap voqelikka munosabatiga ko'ra tasdiq gap bo'lib, diqqat qilinsa, unda Karimning kayfiyati yo'qligi tasdiqlanyapti. Demak, bundan *yo'q, emas* inkor shakllari ot kesim tarkibida kelganda ushbu gap voqelikka munosabatiga ko'ra tasdiq gapni hosil qiladi, degan xulosaga kelish mumkin;

9) inkorning yana bir shakli ohang yordamida hosil qilinadi. Ohang yordamida hosil bo'ladigan inkor shakli nutq jarayonida suhbatdoshning tasdiq gapini istehzo va piching vositasida keskin rad etish maqsadida qo'llaniladi: *keladi-ya keladi (kelmaydi)*. Shuningdek, *faqat* ayiruv va *-mi* so'roq yuklamalari vositasida ham ohang yordamida inkor ma'nosi ifodalanishi mumkin. Bunday yasalmalarda ham suhbatdoshning fikriga nisbatan inkor munosabat chuqur ta'kidlanadi: *Adashgan faqat menmi? – Adashgan faqat men emas.*

Umuman, inkor shakllari o'zining ma'no tovlanishlari, uslubiy xususiyatlari bilan tilimizning ifoda imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan hisoblanadi. Uning lisoniy qonuniyatlari va imkoniyatlarini tadqiq etish qiziqarli ilmiy xulosalarga asos bo'lish bilan birga tilimizning boy leksik, grammatik, uslubiy imkoniyatlarini ta'kidlaydi, e'tirof etadi. Darhaqiqat, oddiy inkor shakllarining bu kabi uslubiy va semantik tovlanishlari, ular o'rta-sidagi o'zaro ma'no nozikliklaridagi inja farqlar tilimizning cheksiz ifoda imkoniyatlaridan darak beradi. Biz ushbu jajji tadqiqotimizda uning ayrim jihatlariga diqqat qaratdik xolos. Aslida bu muammo yirik monografik tadqiqotlar uchun ham boy ilmiy material bera oladi, deb o'ylaymiz.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori, professor

“BOBURNOMA” DAN BIR HIKMAT yoki boburona rostlik bayoni

“Boburnoma” turli yosh, turfa vaziyat, yilning har xil fasllarida qayta va qayta o'qib, uqiladigan, zarurat yuzasidan ko'chirmalar olib, ayni damda boshqalarga mutolaa uchun tavsiya qilinadigan dunyo adabiyotidagi eng mukarram va muazzam kitoblardan biridir. Boburning rostgo'yligi va haqqo'yligini, mardligi va saxovatini, o'zining butun ichkarisi va tashqarisini benihoya oshkora yozganini o'qib odam hayron qoladi. “Boburnoma” da shoh va shoir insonning o'z nafsigamalomatlarini, ibodat-u itoatlari, tavba-tazarrulari, duosi-yu ro'zasi – barchasi

hayratli, ibratli, oshkora tarzda ifoda etiladi. Shuning barobarida mayparastligi va ma'junxo'rliigi, chog'ir bazmlari, fotih o'laroq ayrim makonlarda kallaminorlar qurdirgani – hammasi boburona rostlik bayonidir. O'quvchi taloto'plarga to'la tarixdan saboq olib, olamga ibrat ko'zi bilan qaraydi. Dunyo tarixida o'zini Boburchalik shafqatsiz fosh etgan ikkinchi bir shaxs topilishi qiyin.

“Boburnoma” hijjalab, harflab, so'zma-so'z o'qiladigan bebaho durdonalar sirasiga kiradi. Har gal arslonyurak bir insonning bunday muhtasham ko'ngli bag'oyat inja aks

etgan sahifalar mutolaa qilinganida tovushlar, so'zlar, so'z birikmalari va jumlar tagiga beozor chiziqchalar tortiladi, hoshiyaga biror belgi-alamatlar qo'yiladi. Kitob shu zaylda o'qilsa, belgi qo'yilmagan biror bet qolmaydi. Chunki kitobda oddiy va e'tiborsiz gapning o'zi yo'q. "Boburnoma" shunchaki yozilgan kitob emas. Unda fikr shu darajada tig'izki, odam Bobur nasrining e'joz¹ maqomi va martabasiga beixtiyor qoyil qoladi. Deylik, Samarqand havosini tavsiflab: "Qishi mahkam sovuqtur, qori agarchi Kobul qoricha tushmas. Yozlar yaxshi havosi bor, agarchi Kobulcha yo'qtur", deb qisqa, aniq va qiyosan yozadi.

O'qiyotib, Boburga g'usl vojib bo'lgan bir nuqtaga yetib to'xtaysiz: "Manga g'uslga ehtiyoj edi. Bir ariq suydakim, yoqalari qalin muz to'ngub edi, o'rtasi suvning tezligi jihatidin yax bog'lamaydur edi, bu suvg'a kirib g'usl qildim. O'n olti qatla suvg'a cho'mdum. Suvning sovuqlug'i xeyli ta'sir qildi"². Sovuq zabtiga olgan qish kunida oqar suvga o'n olti marta sho'ng'iganini his qilgan odamning badanida qumursqa o'rmalagandek vujudi beixtiyor junjikadi. "O'n olti qatla suvg'a cho'mdum" jumlasini tagiga chizmasdan, o'sha sahifaga qandaydir hayrat undovini qo'ymasdan keyingi jumlagi o'tilmaydi...

O'ziga sodiq yigitlar bilan Kobulga borayotgan Bobur yo'lida baland qorli tog'dan o'tishiga to'g'ri keladi. Qor otning tizidin yuqoriroq keladi, tinimsiz yog'adi. Bobur yo'ldoshlari bilan yonma-yon turib, qor tepib yo'l ochadi. Hayoti davomida ko'rmagan qiyinchilikka uchraydi. E'tirof etib yozadiki: "Ul necha kun bisyor tashvishlar va mashaqqatlar tortildi, andoqkim, muddat ul-umr muncha mashaqqat kamroq tortilib edi. Bu matla'ni o'shal fursatta aytili:

Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldim-u?
Xasta ko'nglum chekmagan dard-u balosi qoldim-u?"

Boburning ko'pchilikka ma'lum va mashhur g'azalining matla'si ayni voqeelikka munosabat sifatida maydonga keladi. Shoirning "Qoldim-u" radifli g'azalining tavallud biografiasini aynan ana shu qish kunidagi qor tepishlardan boshlanadi. Qor tepib horigan Bobur odam bo'yli qor kapada nafas rostdash uchun o'tiradi. So'ngra atrofiga nazar tashlaydi "...namozi xuftang'acha qor oncha chopqulab yog'dikim, men engashib o'lturub edim, orqamg'a va boshimg'a va quloqlarimning ustiga to'rt ellik qor bor edi". Bunday aniq tasvir xuddi rasmdagidek aniq tasavvur qilinadi. "Boburnoma"ning hikmati shunday sahifalarda bilinadi...

Bobur nazaridagi kunlik vaqt va uning o'lchov birligi uchun tanlangan asos yozilgan sahifani o'qib, xayolim asrlardan asrlarga ko'chdi. Men Bobur yonida va Bobur ruhi go'yo mening yonimda paydo bo'ldi.

Nega? Bugungi kun odami vaqt tez o'tayotganidan, hech bir narsaga ulgura olmayotganidan, bola otadan, otasi qarindosh-urug'laridan xabar olishga fursat topa bilmayotganidan va shunga o'xshash bir olam bahonalardan nolib yozg'iradi. Bu gaplar yoniga avvalroq o'tgan odamlarning salobati, yoshi ulug'ligi,

bugun oltmish-yetmishga kirganlarning nisbatan yosh ko'rinishi, maydakashligi va shu bilan birga Yerning o'z o'qi tegrasida tez aylana boshlaganiga oid taxminlar qo'shiladi. Davralarda vaqtdan gap ochilsa, go'yoki juda muhim va eng oxirgi turli jahonshumul astronomik yo geografik yangilik ham shosha-pisha ilova qilinadi; bu yangi gapni aytib, boshqalarga ma'lumot bergan kimsa zimmasidagi amri ma'ruf-nahyi munkarni ado qilgandek, o'zini ancha baxtiyor ham sezadi. Holbuki, olam o'z holicha aylanib turibdi, odamlar o'z holicha vaqtini, oltin umrini o'tkazish bilan mashg'ul. Ayniqsa, uzundan uzun, go'yo bu olamda abadiy qoladigandek, cheksiz orzu-havaslariga berilish, ehtimol, ana shu omillardir vaqtning tez o'tayotgani sababi. "Boburnoma"ning oxirrog'ida bir kecha-kunduz o'lchovi, bir soatning daqiqalardan tarkib topganiga doir gap bor: "Nechukkim, bizning viloyatlar istilohida kecha-kunduzni yigirma to'rt qism qilibturlar, har qaysisini bir soat debturlar va har soatni oltmish qismat qilibturlar, har qaysisini bir daqiqa deb turlarkim, bir kecha-kunduz ming to'rt yuz daqiqa bo'lg'ay. Daqiqaning miqdori taqriban olti qatla "Fotiha"ni "Bismilloh" bila o'qug'unchadurkim, bir kecha-kunduz sekkiz ming olti yuz qirq navbat "Fotiha"ni "Bismilloh" bila o'qug'uncha bo'lg'ay" (265-bet). O'qib ko'rdim. Biroz tez o'qidim chamasi, yetti martaga yetdi, ikkinchi qatla o'qiganimda Bobur aytganicha bo'ldi. Bu aniq gapning haqiqati odamni hayajonga soladi.

Xo'sh, bunda besh asr muqaddam hazrat Bobur bir daqiqada "Fotiha"ni shu sanoqda o'qigan ekan, bugun biz ham aynan ana shu sonni takrorlab turar ekanmiz, vaqt tezlashganmi, Yer o'z o'qi atrofida shoshib aylanmoqdami, nima bo'lgan? Nazarimda, vaqt o'z holicha, vahimalar, g'avg'olar, g'alvalar, ig'volar, g'iybat va g'urbatlar – mana nimalar odam umrining zavoli.

Vaqt o'z holicha, besh asr muqaddam ne holda bo'lsa, bugun ham shu holda. Ammo undan foydalanish usullari boshqachadir; uzoqni yaqin qilish yo'llari o'ylab topilgan. Haddan tashqari uzoq bo'lib tuyuladigan, piyoda oylab yo'llar yuriladigan ummon ortiga ham uchoqlar yordamida bir necha soatda yetib boriladi. Odamzod Oyga borib dehqonchilik qilishni rejalab yuribdi. Ilk g'iyoh tajriba o'laroq ko'kardi ham. Oy o'z holicha turibdi, texnika o'sdi. Bu vaqtning tez o'tayotganini anglatmaydi, balki insoniyat aqli bilan o'ziga o'zi oson yashash sharoiti yaratib olganidan darak beradi. Zero, insonga aql ne'mati o'z vujudiga nazar solish, nafs balosini tiyish, ko'ngil ko'zini g'ubordan tozalash va shu kabi ko'plab ezgu amallar uchun in'om etilgandir. Buning uchun esa odamzod vaqt topa olmas ekan, sababni, aybni keyingi davrlarda umrning tez o'tishi yoki Yer kurrasining o'z o'qi tegrasida tezroq aylana boshlaganiga bog'lab, loqayd yurishiga haqqi yo'q. Boburning o'ziga xos – hech kimning xayoliga kelmaydigan daqiqa ko'lamini o'lchagani va umuman, "Boburnoma"ning hikmatlari, undagi boburona rostlik bayonlari nafaqat bugun, balki kelgusi avlodlarga ham hali uzoq yillar ulkan saboqlar beradi.

¹E'joz – kam so'z bilan ko'p ma'no ifoda etish usuli.

²Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha nashriyoti, 1989. 88-bet.